YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - IJTIMOIY DAVLAT RIVOJINING NAZARIY VA HUQUQIY TAHLIL ASOSI

Jabborov Muhammadjon Sunatullo o‘g’li
Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya kafedrasi o‘qituvchisi
Telegram raqam +998906195171
muhammadjan.djabborov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi tahrirdahi Konstitutsiyaning 1- moddasida ijtimoiy davlat tushunchasi berib o’tilgan. Ijtimoiy davlat tushunchaning nazariy huquqiy tahlili asoslari hamda kelib chiqish tarixi yoritib o’tilgan.Shuningdek Ijtimoiy davlatning kiritish zarurati hamda ushbu tushunchaning mazmun mohiyti yoritib berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: ijtimoiy davlat, o’zbekiston, erkinlik, tenglik, fuqaro, shaxs,ijtimoiy adolat, ijtimoiy siyosat, konstitutsiya.

O‘zbekiston - boshqaruvining Respublika shakliga ega bo’lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.
Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston”
degan nomlari bir ma’noni anglatadi.
O ‘zbekiston RespublikasiYangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 1-moddasi

Bugungi kunda kelib, biz yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga nazar soladigan bo’lsak , yuqorida berib o’tilgan moddada O’zbekistonning siyosiy , huquqiy va ijtimoiy maqomiga suveren, demokratik , huquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalarining kiritildi. Xo’sh, ushbu tushunchalardan biz “ijtimoiy davlat ” tushunchasini huquqiy nazariy tahlil qilishiga harakat qilamiz.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi dastlab 1850-yilda davlat arbobi va iqtisodchi Lorens fon Shteyn tomonidan ishlatilgan. Shteynning ijtimoiy davlat nazariyasi Gegel falsafasi ta’sirida ilgari surilgan. Ijtimoiy davlat – nemischa so’z olingan. Ushbu tushuncha davlatning boshqaruv modeli bo’lib, ya’ni mavjud siyosatga har bir davlat fuqarosining munosib turmush darajasiga erishish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga yordam berish va ijtimoiy adolat tamoyillariga ko’ra barcha boyliklarni qayta va teng taqsimlashdir. Lorens fon Shteyn davlatning fuksiyalari ro’yxatiga“barcha turli xil ijtimoiy tabaqalar uchun, o’z hokimiyati orqali shaxsiy o’zini o’zi belgilaydigan shaxs uchun huquqlarda mutlaq tenglikni ta’minlash” ni kiritdi. Shteynning fikriga ko’ra, davlat o’z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo’shishi shart, chunki bunda birinchisi rivojlanmay turib ikkinchisining rivojlanishi mumkin emas deb hisoblaydilar va bu omilllar ijtimoiy davlatni rivojlantiruvchi elementlar hisoblanadi deya ta’kidlaydi. [1]

“Ijtimoiy” so’zi “arabcha - jamoa, jamiyatga oid hamda inson va jamiyat hayotiga oid” degan lug’aviy ma’nolarni anglatadi. Ijtimoiy davlat - insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Dastlab ijtimoiy davlat g’oyasi qadimgi sharqda ,shuningdek, bizning buyuk mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma’rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g’oyasini o’zining “ Fozil odamlar shahri” asarida aytib o’tgan. Xusasan ijtimoiy davlat barpo etishni buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham ezgu orzusi bo’lgan. U insonlarning baxtli va farovon yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma’rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o’zaro mehr-oqibatli va bag’oyat axloqiy bo’lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi. Shuningdek, shunga o’xshash g’oyalarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Ahmad Donish singari qator allomalarimiz ijodida ko’rishimiz mumkin.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarlarni yumshatish va muhtojlarga va kam ta’minlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir. Avvalambor shuni aytish kerakki, dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo’lsak, ijtimoiy davlat bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya’ni tom ma’noda davlatdir. Ijtimoiy davlat o’z siyosatida ijtimoiy adolat

tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsadi – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma'mnaviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifat jihatdan tabaqalanishiga , ya'ni ular o'rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf- xarajatlar bo'yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi talqindagi "ijtimoiy davlat" tushunchasini ilmiy muomalaga ilk bor nemis olimi Lorens fon Shteyn kiritgan. Uning fikricha, davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o'z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlashi lozim. Shu tariqa nemis huquqshunoslari L.fon Shteyn, R.fon Mol, F.Lassal ijtimoiy davlat nazariyasining asoschilari sanaladilar va bu ta'limotiga asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shakllangan. "Ijtmoiy davlat" o'z tarixiy rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tgan: [2]

I bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining vujudga kelishi (1880-1914-yillar);

II bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining mujassamlashuvi va keng yoyilishi (1918-1940- yillar);

III bosqich – ijtimoiy davlat ta‟limotining "oltin asri" (1945-1975-yillar);

IV bosqich – ijtimoiy davlat siyosatining "tuzilmaviy takomillashuvi" (1990-yillardan hozirga qadar).

"Ijtimoiylik" ning asosiy sharti – inson shaxsiga, uning sha'ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo'lishdan iborat. Davlatning mohiyati uning faoliyat yo'nalishlarida mujassamlashadi. Ijtimoiy davlatning mohiyati esa, uning oqilona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib amalga oshirishda, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo'ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Ana shunday vazifalar faoliyatining mazmunini tashkil etgan demokratik davlatlar – ijtimoiy davlat sanalishi mumkin. Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya‟ni ko'pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o'zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko'ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma‟noda ijtimoiydir.[3]

Ijtimoiy davlat - bu tenglik va erkinlik, sinfdan tashqari, ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan va insonning ijtimoiy huquqlarini ta'minlaydigan rivojlangan fuqarolik jamiyati bo'lgan huquqiy davlat. Huquqiy davlat va ijtimoiy davlat yagona bir butunlikni tashkil etadi, chunki huquqiy tizimning rivojlanishi faqat tsivilizatsiyalangan jamiyat doirasida mumkin bo'ladi va ijtimoiy munosabatlarning tartiblanishi va rivojlanishi huquqiy tizim ta'sirida sodir bo'ladi. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy huquqlarni, shu jumladan: mehnat qilish huquqi va barcha fuqarolar uchun adolatli mehnat sharoitlari, munosib yashash maoshi, ijtimoiy ta'minot va boshqalarni ta'minlashdan iborat.

Zamonaviy ilmiy manbalarda keng tarqalgan talqinga binoan, ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, o'z fuqarolarining farovonligi, ijtimoiy himoyalanganligi xususida g'amxo'rlik qiladigan davlatdir. Bunday davlat o'z faoliyatini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlar, nogironligi bo'lgan insonlar, bolalar, keksalar ijtimoiy himoyalash bilan uzviy olib boradi.

Aslida ijtimoiy siyosatning asosiy konstitutsiyaviy asoslari bor. Bular:

- Ish bilan ta'minlash va mehnat muhofazasi;
- Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini kafolatlash;

Ijtimoiy davlatning funksiyalari - aholi bandligini ta'minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni byudjet yo'li bilan muvozanatlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta'lim-tarbiya borasida g'amxo'rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun eng kam me'yorni belgilash, oilani himoyalash, ijtimoiy ta'minot tizimini yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish kabilar.[4]

Shuningdek, yana bir jihatni aytib o'tishimiz lozimki, ijtimoiy davlatda insonlar orasida hasadni yo'qotish, mehr-oqibat, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlash, xayr-saxovat tadbirlarini bardavom yo'lga qo'yish, insonlarning ichki dunyosini pok v aularni halol, bolaligidan o'zining mehnatidan boshqa

biror-bir usul yoki vosita orqali muvaffaqiyatga erishib bo'lmasligi tushunchasi bilan tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlarga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy davlatchilik nafaqat Amerika va Yevropa, balki Osiyo mamlakatlarida jumladan Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiyada ham rivojlanib gurdib bormoqda. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, Prezidentimiz " Ijtimoiy davlat" tushunchasini " Ijtimoiy davlat, eng avvalo , insonning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisaqartirish",- deya izohlagan va o'z navbatida, Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak", deb ta'kidlagandilar. Ma'lumot o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "ijtimoiy" so'zi muqaddima, IX bob nomi, 25 ta moddada jami 42 marotaba qo'llanilgan.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy xususiyatlari kuchli ijtimoiy himoya siyosatini, ta'lim sifat yuqoriligi va u insonparvarlik, inson huquq va erkinliklariga himoya qilishga, kuchli jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari ta'siri kuchli ekanligi, barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda mansabdor shaxslari inson va jamiyat oldida mas'ulligi, javobgarligi hamda ularning manfaatlariga xizmat qilishi, korrupsiya deyarli sezilmaydigan daraja mavjud bo'lishi uchun o'z fuqarolarini doimo himoyalamoqda .

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Штейн Л. История социального движения Франции с 1789 года. Пер. со 2-го нем. изд. Т.1. Основное понятие общества и социальная история Французской революции до 1830 г. Спб.: Тип. А.М. Котомица, 1872.
2. X.T.Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. T.: "Yuridik adabiyorlar publish" 2022.
3. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. To"ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. –T.: Adolat 2021. 503-bet
4. https://xs.uz/uz/post/izhtimoij-davlatning-konstitutsiyavij-asoslari